

XXI ASRDA O'ZBEKİSTON PSİXOLOGİYASINING RIVOJLANISH
İSTIQBOLLARI

Ravshanov Sobir Abdimalikovich

Guliston davlat universiteti doktoranti

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ УЗБЕКИСТАНА В XXI ВЕКЕ

Равшанов Собир Абдималикович

Докторант Гулистанскоого государственного университета

DEVELOPMENT PROSPECTS OF UZBEKISTAN PSYCHOLOGY IN THE 21ST
CENTURY

Ravshanov Sabir Abdimalikovich

Doctoral student of Gulistan State University

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi, amalga oshirilayotgan islohatlar, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagagi "O'quvchilarни psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlariни yanada takomillashtirish to'g'risidagi" 577-sonli qarorining mazmun va mohiyatini qamrab olgan.

Kalit so'zlar: fan, taraqqiyot, psixologiya rivoji, bilim, ko'nikma, psixologiya rivoji, ong, tafakkur, malaka.

Аннотация: В данной статье рассмотрено развитие науки психологии в независимом Узбекистане сегодня, проводимые и реализуемые реформы, изменения в сфере образования, а также постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 12 июля 2019 года «Психологическая и педагогическое сопровождение обучающихся «по дальнейшему совершенствованию их работы» освещает содержание и суть решения № 577.

Ключевые слова: наука, развитие, развитие психологии, знания, умения, развитие психологии, сознание, мышление, компетентность.

Annotation: In this article, the development of the science of psychology in independent Uzbekistan today, reforms made and implemented, changes in the field of education, as well as the resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated July 12, 2019 "Psychological and pedagogical support of students"

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

"on the further improvement of their work" covers the content and essence of the decision No. 577.

Key words: science, development, development of psychology, knowledge, skills, development of psychology, consciousness, thinking, competence.

Kirish qismi. Antik davr mutafakkirlari tomonidan to‘plangan ruh haqidagi ta’limot keyinchalik psixologiya fanning shakllanishi uchun zamin yaratdi. Jumladan O‘rta Osiyo mintqasida ham keyinchalik fanning jadal shakillanishi uchun zamin yaratdi. Zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi, Islom dinining keng yoyilishi, IX-XII asrlarda qomusiy olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, XIV-XV asrlardagi Temuriylar davridagi ilmiy yuksalishlar shuningdek turli davrlarda yaratilgan ilmiy asarlar bugungi mustaqil O‘zbekiston ta’lim tiziming jadal sharqona rivojlanishida mustahkam asos vazifasini o‘tamoqda. Jumladan psixologiya fani ham ularning negizida rivojlanish bosqichiga kirdi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin psixologiya fani eng tezkor rivojlanish bosqichiga kirgan fan bo‘lib qoldi. Fan turli yo‘nalishlari, bosqichlari yuzasidan ilmiy, amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar: Tadqiqot obyekti sifatida

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan yani 1991-yildan to 2024-yilgacha bo‘lgan davrlarda mamalakatimiz psixologiyasi sohasi shakllanishi va rivojlanish istiqbollari belgilangan. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili.

XXI asr boshlarida juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo miqyosida o‘z o‘riniga ega bo‘lgan mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohatlar boshlandi. Bu islohatlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, inson va uning barkamolligi, rivoji, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi hususida qayg‘urish muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham psixologiya tarmoqlari kuchayib unga alohida yetishib chiqqan barcha olimlarimiz O‘zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlar psixologiyasi kabi yuqori cho‘qqiga chiqishida katta hissa qo‘shmoqdalar va milliy psixologiya asosida, ya’ni milliylik ruhida tarbiyalab, ularning ongiga psixologiyani singdirmoqdalar. O‘zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoii avvalgidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o‘qitish muassasasi tayyorlov markazlari ochilib kishilar ongiga yetib bormoqda. Bundan tashqari psixologiya tarmoqlari bo‘yicha turli xil muammolarni yechishda asosiy ro‘l o‘ynaydi.

Bu fanning rivojlanishida o‘zbek psixologiyasi, ya’ni B.Qodirov, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.Vohidov, M.Davletshin, E.G‘.G‘oziev,

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

R.Sunnatova, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova,
Sh.A.Dusmuhamedova va boshqa olimlarning xissasi kattadir. Hozirgi kunda
psixologiya fani ham o‘z tarmoqlari va yo‘nalishlarini rivojlantirmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin O‘zbekistonda psixologiya
fanining rivojida keskin burilish yuz berdi. Hozirgi kunda ko‘plab fan nomzodiari
bilan birga fan doktorlari, professorlar faoliyat ko‘rsata boshladilar. [1]

Mamlakatimizda psixologiya fanining mustaqillik davrda rivojlanishi
E.G.‘G‘oziev, M.Voxidov, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G.‘B.Shoumarov
nomlari bilan bog‘liq. Dastlab Toshkent Davlat universiteti xozirgi O‘zMU
psixologiya kafedrasi xodimlari E.G‘oziev va Z.R.Dushabaev raxbarligida keng
qamrovli ilmiy-amaliy va ijtimoiy psixologik tadqiqotlar amalga oshirildi.
Toshkent Davlat Pedagogika instituti xozirgi TDPU psixologiya kafedrasi
mudiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi M.G.Davletshin
rahbarligidagi olimlar guruhi olib borgan tadqiqotlar ham O‘zbekistonda
psixologik bilimlar rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. [2]

Keyingi yillarda O‘zbekistonda ishlab chiqarish, tibbiyat, pedagogika-jamiki
barcha sohalarda psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yish borasida bir qator tadbirlar
amalga oshirildi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali
bo‘lishini ta’minalash, ishlab chiqarishda va mamlakatimiz hayotning barcha
bo‘g‘inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini
to‘la-to‘kis yuzaga chiqarish masalasi mamlakatimiz psixologlari oldiga psixologik
xizmat bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas’uliyatini yukladi:

-Aholi o‘rtasida psixologik salomatlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni
tashkil etish va uni amalga oshirish.

-Har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimi O‘zbekistonda
olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnopsixologiya tamoyillarga moslashtirilgan eng zamonaviy testlar, usullar asosida o‘rganish,
taxlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish.

-Xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga
yo‘naltirishda ma’muriy tashkilotlarga ko‘maklashish, barcha bo‘g‘indagi rahbar
xodimlarning mamlakatdagi ijtimoy-iqtisodiy taraqqiyot talabiga mos psixologik
savoldxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli kurslarni tashkil etish.

-Qator yo‘nalishdagi aholiga sotsial-psixologik xizmat ko‘rsatishni ta’minalash,
xususan individual psixologik xizmat, ishlab chiqarish va mehnat jamoalariga
psixologik xizmat, oilaviy konsuldtatsiya, xalq ta’limi tizimidagi psixologik
xizmat, ichki ishlar tizimida psixologik xizmat, sport va sog‘lomlashtirish
tizimlaridagi psixologik xizmat, tibbiyat tizimidagi psixologik xizmat, transport
tizimidagi psixologik xizmat shular jumlsidandir. [3]

Toshkent Davlat Pedagogika instituti xozirgi TDPU psixologiya kafedrasi
mudiri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi M.G.Davletshin

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

rahbarligidagi olimlar guruhi olib borgan tadqiqotlar ham O'zbekistonda psixologik bilimlar rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek G'.B.Shoumarov, N.A.Sog'inov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova rahbarligida ham olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdii.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning tatbiq etilishini 2 bosqich asosida talqin qilish mumkin. 1-bosqich – maktablarda bevosita psixologlar tomonidan psixologik xizmatning tashkil etilishi. O'tgan asrning 80-yillaridanoq Toshkent shahrining talaygina ish boshlangan va o'sha paytlarning o'zidayoq psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan. Lekin psixologik xizmatni keng targ'ib etish uchun maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi-psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kelar edi.

90-yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari namoyon bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun o'ziga xos zamin yaratildi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining keyingi bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3907сон qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagagi 577-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi qarori [5] Mustaqil O'zbekistonimizda psixologiya sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilishiga zamin yaratdi. Jumladan Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar qilib belgilab qo'yildi:

- psixologik ma'rifat va tashviqot;
- psixologik-pedagogik tashxis;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;
- kasb-hunarga yo'naltirish. [6]

Shuningdek umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasasidagi psixologik xizmatning psixolog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi belgilab berildi. Unga ko'ra:

- psixolog kadrlarini malakasi va psixologik yo'nalishlar bo'yicha o'tkazilgan psixologik tashxis metodikalarining natijaviyligiga ega bo'lgan, trening o'tish

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

mahorati, mehnati samaradorligi hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirgan psixolog kadrlarni rag'batlantirish;

- malaka talablariga muvofiq ularning kasbiy mahorati darajasini aniqlash va malaka toifalarini berish (o'zgartirish);
- kasbiy mahorati darajasining malaka talablariga muvofiqligini aniqlash;
- kompyuter savodxonligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishning majburiyligini ta'minlash. [5]

Yuqorida sanab o'tilgan qonun-qoidalar mamlakatimizda psixolog kadrlarga bo'lgan talabni yanada oshirish, ularning bilim sohasini yanada takomillashtirish va rivojlantirish eng asosiy vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagagi 577-sonli "Umumi o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lif muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi qarorida quyidagilar ham alohida belgilab berildi:

- ta'lif muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish;
- o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari aniqlash;
- turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lif-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish choralarishi ishlab chiqish;
- o'quvchilar ta'lif muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;
- iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirish;
- axborot-psixologik xurujlarning xavfi, internet jahon axborot tarmog'inining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;
- pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligi. [6]

Oxirgi yillarda respublikamiz psixologlari tomonidan 6 mingdan ziyod maktabgacha ta'lif muassasalarida, 11 minga yaqin umumi o'rta ta'lif maktablarda, 200 dan ziyod oliy o'quv yurtlarida ta'lif sifatini yaxshilash bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan:

- psixologyaning qator tarmoqlarida ilmiy adabiyotlar ishlab chiqilmoqda;

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYA

I son, Yanvar

- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning kasbiy qizishlari chuqur o‘rganilib, muhim yo‘nalishlar berilmoqda;
- o‘quvchilarda aktiv muloqot, o‘zlikni anglash, qobiliyatlarni, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan treninglar o‘tkazilmoqda;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy rivojlanishi, psixologik salomatligi o‘rganilmoqda.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojida keskin burilish yuz berdi. Barcha sohalar singari psixologiya sohasi ham jadallik bilan rivojlanish bosqichiga kirdi. inson ruhiyati, tafakkuri, shaxsiy qarashlari alohida e’tiborga olinishi boshlandi. Mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, darsliklar bugungi davrda mustaqil O‘zbekistonimizda psixologiya fanining rivojlanishi va shakillanishi uchun zamin vazifasini o‘tamoqda. Rivojlangan davlarlar qatori bizning yurtimizda ham zamonaviy va qadimiyligi fani sifatida psixologiya fani o‘zining yangicha yo‘nalishlarini ochishi va rivojlanishida mustaqillik davrida yaratilgan va yaratilayotgan tadqiqotlarning o‘rni berqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Psixologiya tarixi. N.S.Jo‘rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. – 2019. Noshir nashriyoti.[1]

URL:<chromeextension://efaidnbmnnibpcajpcglclefindmkaj/><https://elib.buxdupi.uz/books/PsiNVT%20qo'shimcha%20adabiyot%2052.pdf>

2. F.I.Haydarov, N.S Jo‘raev .Psixologiya tarixi: O‘quv qo’llanma. – T.: “TDPU”, 2010. [2]

3. D.N. Arzikulov, E.N. Sirliyev. Psixologiya tarixi: O‘quv-uslubiy majmua. – T.: “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti”, 2016. [4]

URL: <http://lib.sportedu.uz/oquiv-uslubiy-majmua/199-psixologiya-tarixi.html>

4. Jdan G. —Istoriya psixologii! — Uchebnik. — M.: Izd-va J42 MGU, 1990.- 367-s

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.07.2019 yildagi 577-son qarori [5,6]

URL: <https://lex.uz/docs/-4417140#-4418316>